



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

№2

2026



SERVIS

ILMIY-AMALIY JURNAL 2026 -yil, 2-soni

Muassis: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 2008-yil 31-dekabrda
0561-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
O‘zR OAK Riyosatining 19.03.2017 y., 239/5-sonli qarori bilan e’tirof etilgan

Tahririyat a’zolari:

Mas’ul kotib:

i.f.d., prof. M.Q.Pardayev

Muharrirlar:

i.f.d., dotsent F.A.Safarov
PhD, dotsent I.M.Pardayeva
PhD, I.Sh.Ernazarova

Texnik muharrir:

katta o‘qituvchi F.O.O‘roqov

Korrektor:

PhD, dotsent v.b.
T.I.Yahyoyev

Sahifalovchi:

PhD, dotsent v.b.
H.N.Ochilova

1 yilda 4 marotaba
chop etiladi.

**O‘zbekiston hududida
tarqatiladi.**

Tahririyat manzili:

140100, Samarqand shahar,
Amir Temur ko‘chasi, 9-uy,

tel.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

faks: +998(366)231-12-53
el.pochta:

samisiservis@mail.ru

Tahrir hay’ati raisi:

M.E.Po‘latov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori,
i.f.d., professor

Tahrir hay’ati raisi o‘rinbosari:

O.M.Pardayev – SamISI prorektori, iqtisod fanlari doktori,
professor

Tahrir hay’ati a’zolari:

M.M.Muxammedov – SamISI professori, iqtisod fanlari
doktori

D.R.Zaynalov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

O.M.Murtazayev – TDIUSF direktori, iqtisod fanlari doktori,
professor

M.R.Boltabayev – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

R.X.Ergashev – QarMII professori, iqtisod fanlari doktori

B.K.G‘oibnazarov – iqtisod fanlari doktori, professor

I.S.To‘xliyev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

K.B.Urazov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

D.H.Aslanova – iqtisod fanlari nomzodi, professor

Q.J.Mirzayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

B.I.Isroilov – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

G.M.Shodiyeva – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

S.N.Toshnazarov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

R.N.Normaxmatov – SamISI professori, texnika fanlari doktori

A.Bektemirov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

M.T.Alimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Z.Dj.Adilova – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

Sh.O.Quvondiqov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

L.N.Xalikova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

F.A.Safarov – SamISI dotsenti, iqtisod fanlari doktori

A.M.Karimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

I.B.Mattiyev – SamISI professori, pedagogika fanlari doktori

B.F.Boronov – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

A.N.Xoliqulov – SamISI professori, iqtisod fanlari nomzodi

X.A.Raximov – SamISI dotsenti, PhD

S.A.Babanazarova – SamISI dotsenti, PhD

H.N.Ochilova – SamISI dotsenti v.b., PhD

I.R.Berdikulova – SamISI dotsenti v.b., PhD

A.Q.G‘apparov – SamISI dotsenti v.b., PhD

TURIZM VA MEHMONXONA XO‘JALIGI	
Jahongir Rasulovich Zaynalov, Muxabbat Ismatjon qizi Umirzoqova Kambag‘allikni qisqartirishda turizm xizmatlarining o‘rni	63
Озода Мамаюнусовна Пардаева “Ақлли туризм” соҳасида оилавий тадбиркорлик тизимини ривожлантириш йўналишлари	67
Райхона Садриддиновна Амриддинова, Мехринисо Мирзохидовна Кахрамонова Тренды устойчивого туризма и их применение в Узбекистане	71
Farida Abduxalimovna Axmedjanova, Kamola Abdumurodova, Dilnoza Shokirova O‘zbekistonda turistik xizmatlarni standartlashtirish va sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish yo‘llari	77
Ziyovuddinxon Toshbolta o‘g‘li Bakayev Turizm va mehmondo‘stlik industriyasida turistik dala hovlilar tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar samaradorligini oshirish yo‘llari	80
Камилла Бахромовна Суюнова Современные маркетинговые подходы в туризме	87
Muhriddin Husniddin o‘g‘li Qilichov Buxoro tarixiy markazidagi meros obyektlarida turistik sig‘im imkoniyatlari	91
Raxmatulla Hayitboyev, Bobir Zoirovich To‘qsonov Buxoro viloyatida turizmni rivojlantirish istiqbollari	98
Лариса Алижоновна Мусабаева, Тимур Ибодуллаевич Ибрагимов Гули Авазхон қизи Ганиева Оценка конкурентоспособности туристических предприятий на региональном рынке	102
Nurbek Janon o‘g‘li Toshev Mintaqaviy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda turizm sohasining konseptual modelini takomillashtirish	105
Raxmatulla Hayitboyev, Shohzod Baxtiyor o‘g‘li Sadinov, Feruz Yorqin o‘g‘li Hasanov Navoiy viloyatida turizmni rivojlantirish istiqbollari	110
Nilufar Xabibjonovna Xolboyeva, Rayxona Sadriddinovna Amriddinova Gruziya tajribasi asosida O‘zbekistonning rekreatsion turizm sektorini rivojlantirish imkoniyatlari	113
Kamol Sharifovich Yuldashev Buxoro viloyatida avtoturistlar uchun “Avtoturargoh” loyihasini amalga oshirish istiqbollari	116
Temurbek Salomov Ziyorat turizmining barqarorligini oshirish va xizmatlar sohasiga ta’siri	122
MENEJMENT VA MARKETING	
Azizjon Isroiljonovich Ibroximov, Mashxura Toirxonovna Alimova Oliy ta’lim muassasalarida KPI tizimini samarali joriy etish va yuritish	126
Xilola Nematovna Ochilova Boshqarish tizimida raqobatbardoshlikni oshirishda karyerani rivojlantirish texnologiyalarining ahamiyati	130
Navruzbek Zarifovich Niyatov Xizmat ko‘rsatish sohasida boshqaruvni takomillashtirish	135
Samar Safarovich Bozorov Mintaqa milliy turizm bozorining kotent marketing brendining shakllanish darajasi	139
Sadulla Shodiyevich Urazov Tashkilot boshqaruvida CAPI modelidan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari	143

9. Yellow Pages Uzbekistan, Avtomobillarni ijaraga beruvchi kompaniyalar katalogi, URL: <https://uz.yellowpages.uz>.
10. Mehmonxona xizmatlarini sertifikatlash markazi, Buxoro viloyati mehmonxonalari bo'yicha o'rtacha yillik qamrov ko'rsatkichlari, Toshkent, 2023.
12. Buxoro viloyat hokimligi. Buxoroda xalqaro aeroport qurilishi bo'yicha rejalar, Buxoro, 2023.

К.Юлдашев Сравнительный анализ компаний по прокату автомобилей и этапов реализации проекта «Автостоянка» для автотуристов в Бухарском регионе	K.Yuldashev Comparative analysis of car rental companies and stages of implementation of the "Car Park" project for car tourists in the Bukhara region
Аннотация. В данной статье рассматривается тенденция развития независимого автотуризма, который усилился в Узбекистане после пандемии COVID-19. Проведен сравнительный анализ 15 компаний по прокату автомобилей, работающих по всей стране, с оценкой их моделей обслуживания, ценовой политики и географического охвата. Кроме того, разработаны концепция, местоположение, структура обслуживания и прогноз годового дохода проекта «Кемпинг и автостоянка» (CAPA) для независимых туристов, посещающих Бухарскую область на личных или арендованных автомобилях. Ключевые слова: автотуризм, прокат автомобилей, независимый турист, кемпинг, парковка, проект CAPA, Бухарская область, туристическая инфраструктура, внутренний туризм, прогноз дохода.	Abstract. This article examines the trend of independent auto tourism, which has increased in Uzbekistan after the COVID-19 pandemic. A comparative analysis of 15 car rental companies operating across the country was conducted, assessing their service models, pricing policies, and geographic coverage. In addition, the concept, locations, service structure, and annual revenue forecast of the Camping & Auto Parking Area (CAPA) project for independent tourists visiting Bukhara region in personal or rented cars were developed. Keywords: auto tourism, car rental, independent tourist, camping, parking, CAPA project, Bukhara region, tourism infrastructure, domestic tourism, revenue forecast.

Temurbek Salomov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tayanch doktoranti

ZIYORAT TURIZMINING BARQARORLIGINI OSHIRISH VA XIZMATLAR SOHASIGA TA'SIRI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida ziyorat turizmi sohasida ko'rsatiladigan xizmatlar turlarini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari, sohadagi islohotlarning samaradorligi va turizm infratuzilmasini takomillashtirish usullari tahlil qilingan. Innovatsion yondashuvlar va raqamli xizmatlarni joriy etish orqali ziyoratchilarga qulayliklar yaratish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Kalit so'zlar: ziyorat turizmi, Yangi O'zbekiston, strategik rivojlanish, xizmatlar turi, infratuzilma, innovatsiya, marketing.

Kirish. Ziyorat turizmi diniy, ma'naviy hamda madaniy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan maskanlarga safar qilishni o'z ichiga oladi va jahon turizm industriyasining eng barqaror yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Yangi O'zbekiston sharoitida ushbu yo'nalish nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi muhim omil, balki milliy merosni xalqaro miqyosda targ'ib etishning samarali vositasi sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Mamlakatimiz Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband kabi buyuk allomalar bilan bog'liq muqaddas qadamjolar hamda Islom sivilizatsiyasi markazi kabi obyektlar orqali ziyorat turizmini rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. Shu bilan birga, mazkur sohada xizmat ko'rsatish sifati va infratuzilmaning zamonaviy talablarga mosligi dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar ziyorat maskanlarini oddiy tashrif obyektlaridan yuqori darajadagi servisga ega zamonaviy turistik markazlarga aylantirishga yo'naltirilgan. Xususan, “Ziyorat turizmini rivojlantirish strategiyasi” doirasida olib borilayotgan chora-tadbirlar xizmatlar sifatini yangi bosqichga ko'tarishni maqsad qilgan.

Bugungi kunda Buxoro, Samarqand va Xiva shaharlari islom olamida muhim ma’naviy markazlar sifatida e’tirof etiladi. Biroq, 2021-yilda o’tkazilgan tadqiqot natijalari tashrif buyuruvchilarning atigi 2,2¹ foizi ziyorat maqsadida kelganini ko’rsatgan. Bu esa mamlakatimizda ziyorat turizmi bo’yicha yagona brendni shakllantirish, marketing strategiyalarini kuchaytirish hamda xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

2017-yilda "Crescent Rating" xalol turizm reytingida O’zbekiston 29-o’rinni egallagan edi². Shuni ta’kidlash joizki, 2026-yilning boshidayoq ko’plab ziyorat turizmiga aloqador islohotlar va tarixiy majmualar qad ko’tardi va bunga yaqqol misol o’laroq, Imom al-Buxoriy majmuasi qayta rekonstruksiya qilinishi yoki Islom sivilizatsiya markazini ishga tushirilishi keltirish mumkin. Chuqurroq to’xtaladigan bo’lsak, Imom al-Buxoriy majmuasi umumiy maydoni 44 gektarga yetdi. Maqbara, 10 ming kishilik masjid va ma’muriyat binosi, muzey, kirish va chiqish ayvonlari qurib bitkazilgan. Ziyoratgohning 4 burchagida 75 metrlik minoralar qad rostlagan. Yangi majmuada innovatsion muzey ham tashkil etildi. U Islom olamida muhaddislar sultoni deya e’tirof etilgan Imom Buxoriyning hayoti va ilmiy merosi, Islom ma’rifati rivojiga qo’shgan hissasini namoyon etadi. Shuningdek, muzeyda Qur’oni Karimda ismlari zikr qilingan 25 ta payg’ambar tarixi, Muhammad alayhissalomning shajarasi, Makka va Madinadagi hayoti, hadislarning jamlanishi va yozilishi haqidagi ma’lumotlar joylashtirilgan³. Islom sivilizatsiya markaziga keladigan bo’lsak, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi va g’oyasi asosida 2017-yilda tashkil etilgan Islom sivilizatsiyasi markazi – bu oddiy muzey emas, balki fan, madaniyat va ta’lim masalalariga ixtisoslashgan xalqaro ko’lamda faoliyat yuritadigan markazdir. U O’zbekistonning Islomdan avvalgi va islom davri madaniy merosini zamonaviy raqamli texnologiyalar hamda ilmiy tadqiqotlar bilan uyg’unlashtiradi. Markazda jamlangan noyob eksponatlar islom sivilizatsiyasi O’zbekiston hududida asrlar davomida ilm-fan, ta’lim, tarbiya, madaniyat va ma’rifat orqali rivojlanib kelayotganini yaqqol namoyon etadi. Tashrif buyuruvchilarni nafaqat bebaho artefaktlar, balki interaktiv o’quv laboratoriyalari, virtual ko’rgazmalar, “Vaqt kapsulalari”, “Sivilizatsiyalar va kashfiyotlar devorlari” hamda dunyo bo’ylab barcha uchun ochiq bo’lgan ko’p tilli raqamli manbalar kutadi. Bu o’zgarishlar Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan va tegishli qarori bilan qilindi⁴.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Turizm sohasida ko’plab tadqiqotlar olib borilgan. Smithning (2021) turizm sohasidagi rivojlanish va o’sish haqidagi tadqiqotida ziyorat turizmida marketing va xizmat ko’rsatish strategiyalarini muhokama qilgan. Karimovning (2022) turizm sohasiga raqamli texnologiyani kiritish haqidagi tadqiqoti esa mahalliy infratuzilma muammolarini ochib bergan bo’lsa, UNWTO hisobotlari global o’sish tendensiyalarini tahlil qilgan. Sharpley & Sundaramlarning (2005) ziyorat turizmi istiqboli va samaradorligi haqidagi ilmiy ishlari: Diniy turizmning ma’rifiy va madaniy funksiyalarini yoritgan. UNWTO (2020): Ziyorat turizmining global iqtisodiy ta’sirini ko’rsatib bergan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda turli metodologik yo’nalishlardan, xususan, induksiya va deduksiya, miqdor va sifat, makon va zamon, tahlil va sintez, mantiqiy tahlil kabi metodologik yondashuvlardan metodlar qo’llanilib, Samarqand va Buxoro kabi shaharlardagi ziyorat obektlari holati o’rganildi. Turkiya va Saudiya Arabistoni kabi davlatlarning xizmat ko’rsatish standartlari tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. O’zbekistonda ziyorat turizmi salohiyati yuqori bo’lishiga qaramasdan, logistika, zamonaviy sanitariya xizmatlari va raqamli infratuzilma yetarli emas. Saudiya Arabistoni tajribasida IT texnologiyalar va elektron navigatsiya xizmatlari ziyoratchilar oqimini samarali boshqarish imkonini beradi. O’zbekistonda esa bunday innovatsiyalar hali keng joriy etilmagan.

Mazkur jadval ziyorat turizmidagi xizmatlar holatini, mavjud muammolarni va ularni hal qilish yo’llarini umumiy tarzda ko’rsatadi. Uni tahlil qilganda shuni ko’rish mumkinki, ziyorat turizmi tizimi hali to’liq shakllanmagan va uning asosiy qismlari bir-biri bilan yetarli darajada bog’lanmagan.

¹ <https://kun.uz/17689163#!>

² UNESCOning 2024-yil kongressi

³ <https://president.uz/ru/lists/view/8606>

⁴ <https://iccu.uz/uz/news/1366>

Ziyorat turizmida xizmat turlarini rivojlantirish tahlili ¹

Xizmat turi	Hozirgi holati	Islohotlar yo‘nalishi	Xorijiy tajriba
Mehmonxona	Yetarli emas, ayrim obyektlarda yo‘q	Davlat-xususiy sheriklik asosida qurilish	S. Arabistoni: Maxsus klasterlar
Gidlik	Gidlar kam, til bilish darajasi past	Sertifikatlashtirish va til kurslari	Turkiya: Litsenziyalash tizimi
Raqamli xizmat	Kam, ba’zi obyektlarda mavjud emas	Mobil ilovalar va onlayn bronlash	Indoneziya: Haj mobil ilovasi
Transport	Zamonaviy talabga mos emas	Maxsus marshrutlar va yangi yo‘llar	Eron: Maxsus marshrutlar

Masalan, ayrim joylarda mehmonxona xizmatlari yetarli emas yoki sifati barqaror emas. Bu esa turistlarning umumiy taassurotiga salbiy ta’sir qiladi. Shu sababli davlat va xususiy sektor hamkorligida ushbu sohani rivojlantirish muhim hisoblanadi. Bu orqali investitsiyalarni ko‘paytirish, xizmatlarni yaxshilash va ularni bir xil standartga keltirish mumkin. Boshqa davlatlar tajribasi ham buni tasdiqlaydi. Masalan, Saudiya Arabistonida mehmonxonalar klaster tarzida rivojlantirilgan bo‘lib, bu xizmatlarning samaradorligini oshirgan.

Gidlik xizmatlarida ham muammolar mavjud. Gidlar soni kam, ularning chet tillarini bilish darajasi esa yetarli emas. Natijada turistlarga kerakli ma’lumotlar to‘liq yetkazilmaydi. Bu muammoni hal qilish uchun gidlarni o‘qitish, sertifikatlash va til kurslarini tashkil etish zarur. Masalan, Turkiyada gidlar majburiy litsenziya asosida ishlaydi, bu esa xizmat sifatini oshirishga yordam beradi.

Raqamli xizmatlar ham yetarli darajada rivojlanmagan. Hozirgi kunda turistlar uchun mobil ilovalar, onlayn bron qilish tizimlari juda muhim. Ularning yetishmasligi sayohatni qiyinlashtiradi. Indoneziyada yagona mobil platformalar joriy etilib, turizm xizmatlari ancha qulaylashgan. Shuning uchun raqamlashtirishni rivojlantirish juda muhim.

Transport masalasi ham muhim muammolardan biri hisoblanadi. Ba’zi joylarda yo‘llar va transport tizimi zamonaviy talablarga javob bermaydi, bu esa turistlar oqimini kamaytiradi. Maxsus yo‘nalishlar tashkil etish va infratuzilmani yaxshilash bu muammoni hal qilishi mumkin. Masalan, Eronda ziyoratchilar uchun maxsus transport tizimi joriy etilgan.

Umuman olganda, ziyorat turizmida infratuzilma, kadrlar, raqamli xizmatlar va transport sohalarida hali muammolar mavjud. Ularni hal qilish uchun barcha yo‘nalishlarni birgalikda rivojlantirish kerak. Xususan, klaster tizimini joriy etish, raqamli platformalarni rivojlantirish, malakali mutaxassislar tayyorlash va transport tizimini yaxshilash muhim ahamiyatga ega. Shu orqali ziyorat turizmi yanada rivojlanib, iqtisodiy jihatdan ham samarali bo‘lishi mumkin.

Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Yangi O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish faqat infratuzilmani yaxshilash bilan cheklanib qolmasligi, balki xizmat ko‘rsatish yondashuvini tubdan yangilashni ham talab etadi. Zamonaviy turizm talablaridan kelib chiqib, sohani keyingi bosqichda rivojlantirish quyidagi ustuvor yo‘nalishlarga e’tibor qaratishni taqozo etadi.

Avvalo, raqamli transformatsiya masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ziyorat maskanlarida “Smart Pilgrimage” tizimini joriy etish orqali xizmatlarni raqamlashtirish, xususan, onlayn bronlash va audio-gid xizmatlarini yo‘lga qo‘yish zarur. Bunday tizim ziyoratchilarga dunyoning istalgan nuqtasidan turib ziyorat joylari va muzeylarga tashrifni oldindan rejalashtirish, xizmatlarni masofadan turib band qilish imkonini beradi. Natijada xizmatlardan foydalanish qulayligi oshadi va boshqaruv jarayonlari yanada samarali tashkil etiladi.

Ikkinchi muhim yo‘nalish – infratuzilmani modernizatsiya qilishdir. Ziyorat obyektlarida xalqaro standartlarga mos sanitariya-gigiyena sharoitlarini yaratish, transport uzellarini takomillashtirish, shuningdek, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun zarur qulayliklarni ta’minlash ustuvor vazifalardan biridir. Jumladan, maxsus yo‘laklar, panduslar, liftlar va boshqa moslashtirilgan infratuzilma elementlari barcha ziyoratchilar uchun teng imkoniyat yaratishga

¹ Muallifning ishlanmasi

xizmat qiladi.

Uchinchi yoʻnalish sifatida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish alohida ahamiyatga ega. Ziyorat turizmi sohasida faoliyat yurituvchi xodimlar nafaqat xorijiy tillarni bilishi, balki islom tarixi, ziyorat madaniyati va odob-axloq qoidalari boʻyicha ham chuqur bilimga ega boʻlishi zarur. Shu bois, ularni muntazam ravishda malaka oshirish kurslarida oʻqitish va bilim darajasini tizimli ravishda baholab borish muhim hisoblanadi. Chunki ziyoratchilarning aksariyati yetarli diniy bilimga ega boʻlishi mumkin va bu holat xizmat koʻrsatuvchi xodimlardan yuqori darajadagi masʼuliyatni talab etadi.

Nihoyat, samarali marketing strategiyasini shakllantirish ham dolzarb vazifalardan biridir. “Uzbekistan – the Center of Islamic Civilization” brendi ostida xalqaro targʻibot ishlarini kuchaytirish orqali mamlakatning ziyorat turizmi salohiyatini keng namoyon etish mumkin. Soʻnggi yillarda Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom al-Buxoriy majmuasi va Mahdumi Aʼzam ziyoratgohlari kabi yirik loyihalarning amalga oshirilgani bu boradagi muhim qadamlardan dalolat beradi. Endilikda ushbu maskanlarni zamonaviy media platformalar, xususan, YouTube va Instagram kabi global axborot kanallari orqali faol targʻib qilish, xalqaro auditoriyani jalb etishda muhim omil boʻlib xizmat qiladi.

Umuman olganda, yuqoridagi yoʻnalishlar asosida kompleks yondashuvni amalga oshirish ziyorat turizmini yangi bosqichga olib chiqish, xizmatlar sifatini oshirish hamda uning iqtisodiy samaradorligini taʼminlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Smit, J. (2021). *Diniy turizm xizmatlarini rivojlantirish*. Mehmondoʻstlik va turizm menejmenti jurnali, 12-tom, 85–102-betlar.
2. Karimov, A. (2022). *Oʻzbekistonda ziyorat turizmi: muammolar va imkoniyatlar*. Turizm tadqiqotlari jurnali, 15-son, 45–60-betlar.
3. UNWTO. (2020). *Diniy turizm va ziyorat*. Butunjahon turizm tashkiloti hisoboti, 12–34-betlar.
4. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. (2024). *“Ziyorat turizmini rivojlantirish strategiyasi”*. Toshkent: Lex.uz, 1–15-betlar.
5. Oʻzbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qoʻmitasi. (2023). *“Oʻzbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish konsepsiyasi”*. Rasmiy nashr, 22–40-betlar.
6. Henderson, J. (2011). *Diniy turizm va uning boshqaruvi: Saudiya Arabistonidagi Haj amallari*. Xalqaro turizm siyosati jurnali, 4-tom, 2-son, 110–125-betlar.
7. Kollins-Kreyner, N. (2010). *Ziyoratni tadqiq qilish: davomiylik va transformatsiyalar*. Turizm tadqiqotlari yilnomasi, 37-tom, 2-son, 440–456-betlar.
8. Sharpli, R., va Sundaram, P. (2005). *Turizm: muqaddas sayohatmi?*. Turizm menejmenti istiqbollari, 18-tom, 1–14-betlar.
9. Oʻzbekiston Respublikasining "Turizm toʻgʻrisida"gi Qonuni. Toshkent: Adolat nashriyoti, 5–28-betlar.
10. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi PF-6165-sonli Farmoni. Toshkent: Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 1–12-betlar

Т.Саломов	T.Salomov
Повышение устойчивости паломнического туризма и его влияние на сферу услуг Аннотация. В данной статье представлен комплексный анализ стратегических направлений развития видов услуг в сфере паломнического туризма в Новом Узбекистане, их эффективности и методов совершенствования туристической инфраструктуры. Разработаны практические рекомендации по внедрению инновационных подходов, цифровизации сервиса и реализации адресных реформ для повышения качества обслуживания. Ключевые слова: паломнический туризм, Новый Узбекистан, стратегическое развитие, виды услуг, инфраструктура, инновации.	Enhancing the Sustainability of Pilgrimage Tourism and Its Impact on the Service Sector Abstract. This article presents a comprehensive analysis of the strategic directions for the development of service types in the field of pilgrimage tourism in New Uzbekistan, their effectiveness, and methods for improving tourism infrastructure. Practical recommendations are developed for the implementation of innovative approaches, the digitalization of services, and the realization of targeted reforms aimed at enhancing service quality. Keywords: pilgrimage tourism, New Uzbekistan, strategic development, service types, infrastructure, innovation.

ISSN 2091-5187

❧ “SERVIS” ❧

Jurnal Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tahririyat
bo‘limida nashrga tayyorlandi.

15.05.2026-yilda terishga berildi. 26.05.2026-yilda bosishga ruxsat etildi. Ofset
bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84_{1/8}. “Times” garniturası. Ofset bosma usuli.
Shartli bosma tabog‘i 15,4. Hisob-nashriyot
tabog‘i 14,37. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 0105A/26

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
matbaa bo‘limida chop etildi.
Litsenziya № 025316.
Reestr № X-119112.

Manzil: Samarqand shahri, Shoxruh ko‘chasi, 60-uy.

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026.